Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:
(1). Erkayev Abdurahim. Milliy g‘oya va ma’naviyat. Toshkent, 2018, 45–78-betlar.
(2). Erkayev Abdurahim. Tafakkur erkinligi. Toshkent, 2017, 22–54-betlar.
(3). Nazarov Imom. Milliy g‘oya: nazariya va amaliyot. Toshkent, 2019, 33–66-betlar.
(4). Umarov U. Ma’naviyat asoslari. Toshkent, 2016, 40–72-betlar.
(5). Smith John. Innovative Methods in Legal Education. New York, 2020, p. 12–49.
(6). Brown Lisa. Digital Technologies in Law Teaching. London, 2019, p. 27–55.
(7). Johnson Mark. Interactive Learning for Legal Culture. Boston, 2021, p. 14–60.

Shihova Hasiyat Ismailovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i; shihovahasiyat@urdu.uz),
Haytboyeva Mehriniso Nizomaddin qizi (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti; mehrinisohayitboyeva1@gmail.com)

OLIY TA’LIM MUASSASALARI O‘QITUVCHILARINING SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH DARAJASI, MUNOSABATI VA AKADEMIK HALOLLIKKA TA’SIRI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Urganch davlat universiteti va Urganch davlat Pedagogika instituti o‘qituvchilarining sun’iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanish darajasi, bilim saviyasi va munosabati empirik tadqiqot asosida o‘rganilgan. Tadqiqotda 1003 nafar respondent ishtirok etdi. Natijalarga ko‘ra, respondentlarning 49,5 foizi SI haqida yaxshi bilimga ega, 42,9 foizi esa undan har kuni foydalanadi. Shuningdek, 67% o‘qituvchi SI bo‘yicha treninglarga ehtiyoj borligini ta’kidladi. Kafedralar kesimida texnik yo‘nalishlar gumanitar sohalarga nisbatan yuqori natijalarni ko‘rsatdi. Tadqiqot SIdan foydalanish akademik halollik bilan bog‘liq muammolarni ham keltirib chiqarayotganini ko‘rsatdi. Shu sababli SI va akademik halollik o‘rtasida muvozanatni ta’minlash muhim hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, oliy ta’lim, akademik halollik, raqamli savodxonlik.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯМИ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ: ОТНОШЕНИЕ И ВЛИЯНИЕ НА АКАДЕМИЧЕСКУЮ ЧЕСТНОСТЬ

Аннотация. *В статье рассматриваются уровень использования, знания и отношение преподавателей Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни и Ургенчский государственный педагогический институт к технологиям искусственного интеллекта (ИИ) на основе эмпирического исследования. В исследовании приняли участие 1003 респондента. Результаты показали, что 49,5% респондентов обладают хорошими знаниями в области ИИ, а 42,9% используют его ежедневно. При этом 67% преподавателей отметили необходимость проведения специальных тренингов. Технические кафедры демонстрируют более высокие показатели по сравнению с гуманитарными. Также выявлено, что широкое использование ИИ создает новые вызовы для академической честности. В связи с этим важным является обеспечение баланса между использованием ИИ и соблюдением принципов академической честности.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, высшее образование, академическая честность, цифровая грамотность.*

ARTIFICIAL INTELLIGENCE USE AMONG HIGHER EDUCATION TEACHERS: ATTITUDES AND IMPLICATIONS FOR ACADEMIC INTEGRITY

Annotation. *This article examines the level of use, knowledge, and attitudes toward artificial intelligence (AI) among teachers at Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni and Urgench State Pedagogical Institute based on an empirical study. A total of 1,003 respondents participated. The findings show that 49.5% of respondents have a good level of AI knowledge, while 42.9% use AI tools daily. Additionally, 67% of teachers expressed the need for AI-related training. Technical departments demonstrate higher levels of AI usage compared to humanities. The study also highlights emerging academic integrity challenges associated with AI use. Therefore, maintaining a balance between AI adoption and academic integrity is essential.*

Keywords: *artificial intelligence, higher education, academic integrity, digital literacy.*

Kirish (Introduction). Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari XXI asrning eng muhim innovatsiyalaridan biri sifatida ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirib kelmoqda. Xususan, ChatGPT, Google Gemini va Microsoft Copilot kabi generativ SI vositalarining paydo bo‘lishi ta’lim jarayonlarining mazmuni va shakliga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu vositalar o‘quv materiallarini yaratish, individual ta’limni tashkil etish, baholash jarayonlarini avtomatlashtirish hamda pedagogik qarorlar qabul qilishda samarali qo‘llanil-

moqda. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, SI texnologiyalari ta’lim samaradorligini oshirish va o‘quv jarayonini shaxsiylashtirishda katta imkoniyatlarga ega (Zawacki-Richter et al., 2019; Holmes et al., 2022).

Biroq SI texnologiyalarining ta’limga integratsiyalash darajasi mamlakatlar, universitetlar va hatto kafedralar kesimida sezilarli farq qiladi. UNESCO (2023) ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pchilik oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarning SI texnologiyalari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmagan. Bu esa SI imkoniyatlaridan samarali foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda. Mazkur muammo O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi uchun ham dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekistonda raqamli transformatsiya jarayonlari jadal rivojlanayotgan bo‘lsa-da, oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining SI texnologiyalaridan foydalanish darajasi, ularga bo‘lgan munosabati va texnologik kompetensiyalari yetarlicha tizimli o‘rganilmagan. Mavjud ilmiy tadqiqotlar asosan talabalar auditoriyasiga qaratilgan bo‘lib, o‘qituvchilarning SI savodxonligi va undan foydalanish amaliyoti chuqur tahlil qilinmagan (Karimov & Abdullaev, 2023).

Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalarining keng joriy etilishi akademik halollik masalalarini ham yangi bosqichga olib chiqmoqda. SI yordamida yaratilgan matnlar, topshiriqlar va ilmiy ishlarning muallifligini aniqlash murakkablashib bormoqda. Plagiatning an’anaviy shakllari bilan bir qatorda “AI-assisted plagiarism” (SI yordamida yaratilgan plagiat) kabi yangi ko‘rinishlar yuzaga kelmoqda. Bundan tashqari, baholash jarayonlarining shaffofligi, talabalarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini saqlab qolish va akademik halollik tamoyillariga rioya etilishini ta’minlash dolzarb muammoga aylanmoqda. Shu sababli SI texnologiyalaridan foydalanishni akademik halollik prinsiplari bilan uyg‘unlashtirish zarurati ortib bormoqda.

Tadqiqot quyidagi asosiy savollarga javob izlaydi:

1. O‘qituvchilarning SI texnologiyalari bo‘yicha bilim darajasi qanday?
2. SI vositalaridan foydalanish chastotasi qanday?
3. Kafedralar kesimida qanday farqlar mavjud?
4. O‘qituvchilar SI bo‘yicha qo‘shimcha ta’limga ehtiyoj sezayaptimi?
5. SI texnologiyalaridan foydalanish akademik halollikka qanday ta’sir ko‘rsatmoqda?

Adabiyotlar sharhi (Literature Review). Sun’iy intellektning ta’limdagi o‘rni bo‘yicha xalqaro miqyosda ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Zawacki-Richter va hamkasblarining (2019) sistematik sharhi SI ning ta’limdagi to‘rtta asosiy qo‘llanilish yo‘nalishini ajratib ko‘rsatadi: profayllashtirish va prognozlash, intellektual o‘qitish tizimlari, adaptiv ta’lim platformalari hamda akademik yozish yordamchilari. Ushbu yo‘nalishlar SIning ta’lim jarayonlarini optimallashtirishdagi muhim rolini tasdiqlaydi.

Marr (2023) o‘z tadqiqotida oliy ta’lim o‘qituvchilarining SI texnologiyalariga munosabati ikki qutbli ekanligini aniqlagan. Bir tomondan, o‘qituvchilar SI vositalarining samaradorligini va vaqtni tejash imkoniyatlarini e’tirof etishsa, ikkinchi tomondan, akademik halollik, plagiat xavfi, mustaqil fikrlashning pasayishi va kasbiy ko‘nikmalarning degradatsiyasi kabi muammolar yuzasidan jiddiy xavotir bildirgan.

Chan va Tong (2024) tadqiqoti SI dan foydalanish darajasi fan yo‘nalishiga bog‘liq holda sezilarli farq qilishini ko‘rsatadi. Xususan, STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) sohalari vakillarida SIni qabul qilish va undan foydalanish darajasi gumanitar va ijtimoiy fanlar vakillariga nisbatan yuqoriroq ekanligi aniqlangan. Bu esa texnologik tayyorgarlik va kasbiy ehtiyojlar bilan bevosita bog‘liq.

Punya Mishra va Matthew Koehler (2006) tomonidan ishlab chiqilgan TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) modeli o‘qituvchilarning texnologik kompetensiyasini baholashda muhim nazariy asos sifatida keng qo‘llaniladi. Ushbu model texnologik bilim, pedagogik bilim va fan bilimining o‘zaro integratsiyasini ta’kidlaydi hamda zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchining kompleks kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Al-Zahrani va Alasmari (2024) tomonidan Saudiya Arabistoni universitetlarida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning SI savodxonligi ko‘pincha o‘z-o‘zini o‘rganish orqali shakllanadi, tizimli kasbiy rivojlantirish dasturlari esa yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Bu holat O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi uchun ham xos bo‘lib, o‘qituvchilarning SI bo‘yicha kompetensiyalarini rivojlantirishda institutsional yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, so‘nggi tadqiqotlarda SI va akademik halollik o‘rtasidagi bog‘liqlik alohida e’tibor markaziga aylangan. Tadqiqotchilar SI yordamida yaratilgan kontentni aniqlash, plagiatni nazorat qilishning yangi usullarini ishlab chiqish hamda baholash mezonlarini qayta ko‘rib chiqish zarurligini ta’kidlamoqda. Akademik halollikni ta’minlash uchun nafaqat texnologik vositalar, balki etik me’yorlar, normativ hujjatlar va o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili SI texnologiyalaridan foydalanish va akademik halollikni ta’minlash o‘rtasida muvozanatni shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Metod (Methods). Tadqiqotda miqdoriy (kvantitativ) yondashuv qo‘llanilgan. Kross-sektsional (cross-sectional) so‘rovnoma usuli asosida ma’lumotlar yig‘ilgan. So‘rovnoma Google Forms platformasi orqali onlayn shaklda o‘tkazilgan. Tadqiqotda ushbu maqolada Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti o‘qituvchilarining hamda Urganch davlat pedagogika institutining professor-o‘qituvchilarining 1003 nafari ishtirok etgan. Respondentlar universitetning ixtiyoriy tanlanma asosida kafedra o‘qituvchilarini qamrab olgan bo‘lib (jami 893 respondent, ya’ni umumiy tanlanmaning 89,3 foizi). Bu yondashuv statistik ishonchlilikni ta’minlash maqsadida qo‘llanilgan. So‘rovnoma quyidagi asosiy bo‘limlardan tashkil topgan: (a) SI texnologiyalari bo‘yicha bilim darajasi (3 darajali shkala), (b) SI vositalaridan foydalanish tezligi (6 variantli shkala), (c) SI bo‘yicha seminar va treninglar zarurligi (4 darajali shkala), (d) SIning xavf-xatarlari bo‘yicha xabardorlik, (e) SI ni boshqalarga tavsiya qilish darajasi. Olingan ma’lumotlar tavsifiy statistika usullari (foizlar, chastotalar) yordamida tahlil qilingan. Kafedral taqqoslash uchun o‘zaro taqqoslama (cross-tabulation) usuli qo‘llanilgan. Tahlil Microsoft Excel dasturida amalga oshirilgan.

Natijalar (Results).

1. SI bo‘yicha bilim darajasi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning aksariyati (96,6%) SI texnologiyalari haqida ma’lum darajada xabardor. Batafsil taqsimot 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

O‘qituvchilarning SI bo‘yicha bilim darajasi (N=1003)

Bilim darajasi	Soni	Foiz (%)
Juda yaxshi bilaman	496	49,5
Qisman bilaman	472	47,1
Eshitganman, ishlatmaganman	35	3,5

Ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, respondentlarning deyarli yarmi (49,5%) SI haqida yaxshi bilimga ega ekanligini bildirgan. Faqat 3,5 foiz respondent SI haqida faqat eshitgan, lekin ishlatmagan.

2. SI foydalanish tezligi. O‘qituvchilarning SI vositalaridan foydalanish tezligi 2-jadvalda aks ettirilgan.

2-jadval

SI vositalaridan foydalanish tezligi (N=1003)

Foydalanish tezligi	Soni	Foiz (%)
Har kuni	430	42,9
Haftada	329	32,8
Oyda	68	6,8
Juda kam	84	8,4
Hech qachon	8	0,8
Noma’lum	84	8,4

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, respondentlarning 75,7 foizi SI vositalaridan muntazam (har kuni yoki haftada) foydalanadi. Faqat 0,8 foiz respondent SI vositalaridan hech qachon foydalanmaganligini bildirgan, bu esa SI ning keng tarqalganligidan dalolat beradi.

3. SI bo‘yicha seminar zarurligi. O‘qituvchilarning SI bo‘yicha qo‘shimcha ta’limga ehtiyoji 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

SI bo‘yicha seminar zarurligi (N=1003)

Javob varianti	Soni	Foiz (%)
Ha, juda kerak	261	26,0
Kerak	411	41,0
Qisman	242	24,1
Kerak emas	89	8,9

67 foiz respondent ("Ha, juda kerak" va "Kerak" javoblarini berganlar) SI bo‘yicha maxsus seminar va treninglar o‘tkazilishini zarur deb hisoblaydi. Faqat 8,9 foiz respondent bunday seminarlarga ehtiyoj sezmaganligini bildirgan.

4. Kafedral farqlar. Tadqiqotning eng muhim natijalaridan biri kafedralar kesimidagi sezilarli farqlardir. 4-jadvalda eng yuqori va eng past ko‘rsatkichlarga ega kafedralar keltirilgan.

4-jadval

Eng yuqori va eng past ko‘rsatkichlarga ega kafedralar

Kafedra	Yaxshi biladi %	Muntazam %	Seminar %
Ma’lumotlar uzatish tarmoqlari	100	90	40
Dasturiy injiniring	90	100	60
Axborot xavfsizligi	90	80	50
Kompyuter injiniring	88,2	100	58,8
Kompyuter ilmlari va SI tex.	84,6	100	53,8
...			
O‘zbek tilshunosligi	14,3	57,1	81
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi	21,4	78,6	78,6
San’at	22,7	68,2	77,3
Agronomiya	25	80	80
Sport o‘yinlari	26,9	69,2	73,1

Ma’lumotlar kompyuter fanlari, axborot texnologiyalari va muhandislik kafedralarida SI bilim darajasi va foydalanish ko‘rsatkichlarining yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda. Ma’lumotlar uzatish tarmoqlari kafedrasida barcha respondentlar (100%) SI haqida yaxshi bilimga ega, Kompyuter injiniring, Dasturiy injiniring va Kompyuter ilmlari kafedralarida esa muntazam foydalanish 100 foizni tashkil etgan.

Aksincha, O‘zbek tilshunosligi (14,3%), Boshlang’ich ta’lim metodikasi (21,4%) va San’at (22,7%) kafedralarida SI bilim darajasi ancha past. Diqqatga sazovor jihati shundaki, aynan shu kafedralar seminarga eng ko‘p ehtiyoj sezmoqda (80–81%).

Qiziqarli natija sifatida shuni ta’kidlash joizki, Elektrotexnika va energetika (100%) hamda Kompyuter injiniring (100%) kafedralarida barcha respondentlar SI vositalaridan muntazam foydalanadi, vaholanki, ba’zi gumanitar kafedralardan (masalan, Psixologiya – 33,3%) bu ko‘rsatkich ancha past.

Muhokama (Discussion). Tadqiqot natijalari bir qator muhim ilmiy va amaliy xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Birinchidan, o‘qituvchilarning sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari bo‘yicha umumiy xabardorlik darajasining nisbatan yuqori ekanligi (96,6%) ushbu texnologiyalarning ta’lim tizimida tez sur’atlar bilan ommalashayotganini ko‘rsatadi. Bu natija Sallam va hamkasblarining (2023) global miqyosdagi tadqiqotlari bilan hamohang bo‘lib, unda oliy ta’lim jamoatchiligi orasida SI xabardorligi 90 foizdan oshganligi qayd etilgan. Biroq yuqori xabardorlik darajasi har doim ham chuqur va tizimli bilim mavjudligini anglatmasligini alohida ta’kidlash zarur.

Ikkinchidan, o‘qituvchilarning 75,7 foizi SI vositalaridan muntazam foydalanishi O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadal kechayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, bu ko‘rsatkichni ehtiyotkorlik bilan talqin qilish lozim, chunki foydalanish chastotasi har doim ham foydalanish sifati bilan mos kelavermaydi (Crompton, Burke, 2023). Xususan, SI vositalaridan faqat ma’lumot izlash yoki matn generatsiyasi uchun foydalanish bilan ularni pedagogik innovatsiya sifatida chuqur integratsiya qilish o‘rtasida sezilarli farq mavjud.

Uchinchidan, kafedralar kesimidagi farqlar Chan va Tong (2024) tomonidan aniqlangan STEM va gumanitar fanlar o‘rtasidagi “raqamli tafovut” (digital divide) mavjudligini yana bir bor tasdiqlaydi. Texnik yo‘nalishdagi kafedralarning yuqori natijalari kutilgan bo‘lsa-da, gumanitar fanlar vakillarining past ko‘rsatkichlari tizimli qo‘llab-quvvatlash va maqsadli treninglar zarurligini ko‘rsatadi. Luckin (2018) ta’kidlaganidek, SI texnologiyalari nafaqat texnik fanlar, balki til o‘rgatish, tarix va san’at kabi sohalarda ham samarali qo‘llanishi mumkin.

To‘rtinchidan, tadqiqot natijalari sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish va akademik halollik o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni ochib beradi. SI vositalarining keng qo‘llanilishi ta’lim jarayonida

yangi etik muammolarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, SI yordamida yaratilgan matnlarning muallifligini aniqlash, "yashirin plagiat" (AI-assisted plagiarism) holatlarini aniqlash hamda baholash jarayonlarining shaffofligini ta'minlash dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu bilan birga, SI vositalari o'qituvchilar va talabalar tomonidan noto'g'ri yoki nazoratsiz qo'llanilganda akademik halollik tamoyillarining buzilish xavfini oshiradi.

Bundan tashqari, akademik halollik nuqtayi nazaridan, SI texnologiyalaridan foydalanish faqat cheklovlar bilan emas, balki to'g'ri yo'naltirilgan pedagogik strategiyalar orqali boshqarilishi lozim. Masalan, SI vositalaridan foydalanishni ochiq e'lon qilish (disclosure), manbalarni to'g'ri ko'rsatish, hamda SI yordamida yaratilgan kontentni tanqidiy baholash ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida akademik halollik siyosatini zamonaviy texnologik sharoitlarga mos ravishda yangilash zaruratini ko'rsatadi.

Tadqiqotning cheklanishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

a) o'z-o'zini baholash usulidan foydalanilganligi sababli subyektivlik xavfi mavjud;

b) SI vositalaridan foydalanishning sifat jihatlari (qaysi maqsadlarda va qanday darajada qo'llanilayotgani) yetarlicha chuqur o'rganilmagan;

d) akademik halollik bilan bog'liq xatti-harakatlar bevosita kuzatish yoki eksperimental usullar orqali emas, balki bilvosita baholangan.

Kelgusidagi tadqiqotlarda SI texnologiyalaridan foydalanishning sifat ko'rsatkichlarini, akademik halollikka ta'sirini eksperimental va aralash metodlar asosida chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa (Conclusion). Ushbu tadqiqot o'qituvchilarining sun'iy intellekt texnologiyalariga munosabati va foydalanish darajasini kafedral kesimda aniqlashga qaratilgan bo'lib, quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

O'qituvchilarning mutlaq ko'pchiligi (96,6%) SI texnologiyalari haqida xabardor va ularning 75,7 foizi muntazam foydalanuvchidir. Biroq, kafedral farqlar sezilarli bo'lib, texnik yo'nalishdagi kafedralar gumanitar kafedralardan 2–3 barobar yuqori ko'rsatkichlarga ega. Respondentlarning ikki uchdan bir qismi (67%) SI bo'yicha maxsus seminar va treninglar o'tkazilishini zarur deb hisoblaydi.

Amaliy tavsiyalar (Recommendations). Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan:

Birinchidan, differensial yondashuv asosida kasbiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish lozim. Gumanitar va ijtimoiy fanlar kafedralaridagi o'qituvchilar uchun SI ning ularning fan sohasiga oid amaliy imkoniyatlarini ko'rsatuvchi maqsadli seminarlar tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Misol uchun, til o'rgatishda SI yordamchi vositalari, tarixda SI orqali manbalar tahlili kabi mavzular bo'yicha amaliy treninglar samarali bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, universitet darajasida sun'iy intellekt (SI) kompetensiyalarini rivojlantirish markazini tashkil etish tavsiya etiladi. Bu markaz o'qituvchilarga SI vositalarini o'rganish, amaliyotga tatbiq etish va tajriba almashish imkonini yaratadi (Ng et al., 2021). Shu bilan birga, markaz doirasida akademik halollikni ta'minlash, ya'ni, SI dan foydalanishda shaffoflik, "AI disclosure" amaliyoti va plagiatning oldini olish bo'yicha treninglar tashkil etilishi muhimdir.

Uchinchidan, mentor dasturlarini joriy etish tavsiya etiladi. Texnik yo'nalishdagi kafedralarning tajribali o'qituvchilarini gumanitar kafedralar bilan juftlashtirish orqali ichki bilim almashish tizimini yo'lga qo'yish mumkin (peer mentoring). Bu yondashuv Al-Zahrani va Alasmari (2024) tomonidan ham samarali deb baholangan.

To'rtinchidan, SI foydalanish bo'yicha universitet siyosati va yo'riqnomasi ishlab chiqilishi zarur. Bu hujjat SI vositalaridan ta'lim jarayonida foydalanishning etik tamoyillari, ruxsat etilgan va cheklangan holatlarini belgilab berishi kerak (UNESCO, 2023).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). Al-Zahrani A.M., Alasmari T.M. (2024). Exploring university faculty members' AI literacy and adoption: Implications for professional development. Education and Information Technologies, 29(4), 4253–4278.

(2). Chan C.K.Y., Tong L.H. (2024). Students' and instructors' perceptions of AI in higher education: A cross-disciplinary analysis. Computers & Education, 212, 105012.

(3). Crompton H., Burke D. (2023). Artificial intelligence in higher education: The state of the field. International Journal of Educational Technology in Higher Education, 20(1), 22.

(4). Holmes W., Bialik M., Fadel C. (2022). Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning (2nd ed.). Center for Curriculum Redesign.

(5). Karimov I.A., Abdullayev B.R. (2023). O'zbekiston oliy ta'limida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi: muammolar va istiqbollar. "Ta'lim va innovatsiyalar", 4(2), 45–58-betlar.

(6). Luckin R. (2018). Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. UCL Press.
(7). Marr B. (2023). Generative AI in Education: Opportunities, Challenges, and the Future. Forbes Education Series.
(8). Mishra P., Koehler M.J. (2006). Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge. Teachers College Record, 108(6), 1017–1054.
(9). Ng D.T.K., Leung J.K.L., Chu S K.W., Qiao M.S. (2021). Conceptualizing AI literacy: An exploratory review. Computers and Education: Artificial Intelligence, 2, 100041.
(10). Pellas N. (2023). The influence of sociodemographic factors on ChatGPT's awareness and adoption by higher education instructors. Information, 14(10), 514.
(11). Sallam M., Salim N.A., Barakat M., Al-Tammemi A.B. (2023). ChatGPT applications in medical, dental, pharmacy, and public health education: A descriptive study. JMIR Medical Education, 9, e48945.
(12). UNESCO (2023). Guidance for Generative AI in Education and Research. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.
(13). Zawacki-Richter O., Marín V.I., Bond M., Gouverneur F. (2019). Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education. International Journal of Educational Technology in Higher Education, 16(1), p. 39.

Shinibekov Qarjawbay Palbekovich (Nukus davlat Texnika universiteti o'qituvchisi)

YOSHLAR TA'LIM-TARBIYASIGA E'TIBOR QARATISH – DAVR TALABI

Annotatsiya. *Maqolada axborot asrida yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga e'tibor qaratish davr talabiga aylanib borayotganligi ta'kidlab ko'rsatilgan. Gazetalardagi ta'lim-tarbiya bo'yicha bayon qilingan maqolalar mazmuni o'rganilgan. Axborot asrida medianing o'rni, faoliyati, mahorati haqida tadqiqotchilarning bildirgan fikrlari tayanch baza sifatida ko'rsatilgan. Ta'lim jarayonlari aniq faktlarda ochib berilgan gazeta maqolalari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *media, ma'lumot, ijtimoiy tarmoqlar, televideniya, onlayn, nashr, gazeta, ta'lim, rukn.*

СОСРЕДОТОЧЕНИЕ ВНИМАНИЯ НА ТРЕБОВАНИЯХ К ПЕРИОДУ ОБУЧЕНИЯ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. *В статье подчеркивается, что в век информации акцент на воспитании молодежи становится требованием времени. Было изучено содержание статей в газетах, рассказывающих об образовании. В качестве опорной базы указываются высказывания исследователей о роли, деятельности, мастерстве СМИ в информационный век. Анализируются газетные статьи, в которых процессы воспитания раскрываются в конкретных фактах.*

Ключевые слова: *СМИ, информация, социальные сети, телевидение, онлайн, публикация, газета, образование, колонка.*

FOCUSING ON REQUIREMENTS FOR THE PERIOD OF YOUTH EDUCATION

Annotation. *The article emphasizes that in the information age, prioritizing the upbringing and education of young people has become a critical necessity. The study examines the content of newspaper articles dedicated to the field of education. The theoretical framework is based on researhers' insights into the role, functions, and professional expertise of the media in the digital era. Newspaper articles have been analyzed in which educational processes are revealed in specific facts.*

Key words: *media, information, social networks, television, online, publication, newspaper, education, column.*

Kirish. Axborot asrida yoshlar ta'lim-tarbiyasiga e'tibor qaratish davr talabiga aylanib bormoqda. Chunki xilma-xil ma'lumotlar, xorijdagi voqea-hodisalar, insonlar orasidagi munosabatlarni turli kanallar orqali olish imkoniyati paydo bo'ldi. Axborot yekazuvshi kanallarda biz faqat matnli, audio, video va foto xabarlardan tashkari gazetalarni ham onlayn shaklda o'qish imkoniyatiga egamiz. Oldingi vaqtlardagek kutubxona yoki tahririyatga borib emas, onlayn shaklda o'zimiz uchun qulay sharoitda, qulay payta bizga kerakli sonini topib o'qish imkoniyati mavjud. Shu jihatdan, gazetalat axborot asrida o'z auditoriyasiga ma'lumot yekazishda keng imkoniyatlarni yaratib bera oldi. Bu–gazetalarning yutug'i. Gazeta jamiyatni, butun yosh avlodni tarbiyalashda o'rni beqiyos axborotlar manbayi. Ta'lim-tarbiya, adabiyat, milliy qadriyatlar, ulug' insonlar hayoti va ijodi bilan aloqadar intervyular orqali auditoriya qiziqarli ma'lumotlarga ega boladi. Maxsus ruknlarda berilayotgan bu jarayonlar yosh avlodni olg'a intilishdan to'xtamaslikka davat etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tadqiqotchilar ham mazkur mavzuda ommaviy axborot vositalarining faoliyatini keng o'rganib kelmoqda: «Ommaviy axborot vositalari auditoriyaning ongiga, shuuriga bevosita tasir qiladi. Oddiy odamlarning dunyoqarashini, tushunchalarini shakllantiradi, qaysidir manoda manipulatsiya ham qila oladi. Tashqi olam haqida ma'lumotni media orqali olar ekanlar, uning ta'sirga